

20-Yanvar, 2026-yil

**TABIIY FANLAR FANINI O‘RGANILISHIDA SINGAPUR TAJRIBASI
ORQALI QO‘LLANILADIGAN METODLARNI DARS JARAYONIDA
O‘RGANILISHI**

O‘zbekistan Ekologiya partiyasi Farg‘ona shahar kengashi raisi

Nilufarxon Isaqova

Navbahor Yusupjonova Xolmatjonovna

Farg‘ona shahar "Eso Schools Uzbekistan" 30-maktab koordinatori

yusupjonova80@mail.ru

Annotatsiya: O‘quvchilarini Tabiiy fanlar fanidan o‘qitishda interfaol usullar va didaktik o‘yinlarning ahamiyati haqida fikr-mulohazalar va metodik tavsiyalar berildi. Mazkur metodik tavsiya o‘quvchilarning Tabiiy fanlar faniga qiziqishlarini oshirish barobarida dars samardorligini oshirishga ham yordam beradi.

Kalit so‘zlar: innovatsion, dars, interfaol, ped texnologiya, Zakovat o‘yini, Ilmiylik, erkin fikrlovchi darsi, o‘yin darsi, izlanish darsi, malaka va ko‘nikma, Besh daqiqa metodi

Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e‘tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri shu vaqtgacha an‘anaviy ta‘limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilganligidir. Zamonaviy texnologiyalar esa ularni egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlari, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi

REKLAMA" METODI.

"Reklama (lotincha "reklamo" - qichqirmoq)- tovarlarning sifati, ularni sotib olishdan ko‘riladigan naf haqidagi axborot. Reklama marketingning tarkibiy qismi hisoblanib, talab va iste‘molchilar didining shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Bizning "Reklama " metodimiz sinfxona, dars imidjini yaratishda xizmat qiladi.

Dars jarayonida ishtirok etayotgan o‘quvchilar uchun xarajat bu - aqliy dunyosining kengligi hamda kreativligi.

Kreativ reklama ssenariylari va g‘oyalari uchun jamoa o‘quvchilari rag‘bat kartochkalari hamda "Eng yaxshi reklama g‘oyachilari" nominatsiyasiga sazovor bo‘ladi.

" **Reklama**" metodi kubogi bilan taqdirlanadi.

Innovatsion g‘oyalari orqali boshqa raqobatchilardan ajralib turadi, bu esa iste‘molchilarni jalb qiladi.

Bu "REKLAMA" metodi mustahkamlash dars jarayonida qo‘llaniladi.

O‘qituvchi chorak davomida o‘tilgan mavzulardan bir qanchasini tanlab yashirin qo‘g‘ozlar ortiga yozib qo‘yadi. O‘qituvchi barcha jamoa sardorlariga jamoalaridagi eng ijodkor, kreativ fikrlaydigan, tasviriy san‘at oshnoshi bo‘lgan o‘rtoqlaridan birini tanlab berishlarini so‘raydi.

Guruhdan tanlab olingan o‘quvchilar uchun alohida joy hozirlanadi. Ular qog‘oz ortiga yozilgan mavzu asosida reklama tayyorlaydilar. Tayyorlanayotgan reklama ishlari qaysi jamoa vakillari tomonidan tayyorlanayotganligi aytilmaydi.

- 15 daqiqa vaqt beriladi.

O‘quvchilar tomonidan tayyor bo‘lgan barcha reklama ishlari navbat bilan jamoalarga taqdim etiladi. har bir jamoa a'zolari 4 ta ijodiy reklama ishlarini o‘rganadi va baholaydi. Eng ko‘p ovoz to‘plagan, o‘ziga xos g‘oyalar ifodalangan reklama mavzusi o‘qituvchi tomonidan e‘lon qilinadi.

Har bir jamoa a'zolari asar mavzusi yuzasidan tayyorlangan reklama ishlarini sharhlab beradi.

Reklama asosida eng yaxshi yoritib berilgan mavzu bugungi darsning mavzusi hisoblanadi. Dars jarayoni shu mavzu yuzasidan olib boriladi.

Xitoy tajribasida qo‘llaniladigan metodlar

Takrorlash asosidagi o‘qitish metodi

- Qoidani o‘qituvchi tushuntiradi
- Bir xil turdagi mashqlar ketma-ket bajariladi
- Bilim mustahkamlanadi

Singapur tajribasida qo‘llaniladigan metodlar

Muammo asosida o‘qitish metodi. Hayotiy muammo taqdim etiladi. Sabablar aniqlanadi. Yechimlar taklif qilinadi. O‘yla – juftlash – baham ko‘rish metodi

Avval yakka fikr yuritiladi. Keyin juftlikda muhokama qilinadi. Oxirida umumiy xulosa chiqariladi.

Savol orqali fikrlashni rivojlantirish metodi

- “Nega?”
- “Qanday?”
- “Agar shunday bo‘lsa-chi?”

Dars jarayonida Singapur tajribasidadan foydalanamiz.

"ENERGIYA" metodi

Bu o'yin juda qiziqarli bo‘lib, ko‘proq yuqori sinf o'quvchilari uchun mosdir. Ushbu o‘yinga tayyorgarlik ko‘rish uchun siz bir qancha savollar tayyorlashingiz kerak bo‘ladi. Siz har qanday savoldan foydalanishingiz mumkin, ular xoh mavzuga oid bo‘lsin, xoh o‘quvchilarning o‘ziga.

O‘yin uchun tayyorgarlik. Savollaringiz ro‘yxatini yozib oling va ularni har bir satrga alohida joylashtirib A4 formatdagi qog‘ozga chop eting. Keyin, qaychi bilan har bir savol orasidagi chiziqni kesib chiqing. Lekin qog‘ozning oxirigacha kesmang, savollar bir - biriga bog‘langan bo‘lishi kerak. Oxirida savollarni doskaga mahkam yopishtiring va yaqinroqqa axlat qutisini ham joylashtirib qo‘ying.

O‘yinni o‘tkazish. Ikkita jamoa tuzing va ular sinfning eng oxirida ikki qator turishlari kerak. O‘qituvchi “Boring!” deganida, har bir jamoadan bitta o‘quvchi doskaga yugurib chiqib, qog‘ozdan birini yirtib oladi. Bunda ular qog‘ozdagi savolni ovoz chiqarib o‘qishlari va savolga imkon qadar tezroq javob berishlari kerak.

20-Yanvar, 2026-yil

Bu o‘yin qiziqarli davom etishi ko‘proq savollarga bog‘liq. Savollar qanchalik qiziqarli va kutilmagan bo‘lsa, o‘yin ham yuqori kayfiyatga boy tarzda o‘tadi. Agar sizda o‘yin uchun savollar bo‘lmasa keyingi postda keltirilgan savollardan foydalanishingiz mumkin.²⁰

Nazorat qilinadigan tajriba o‘tkazish davomida natijaga ta'sir etuvchi omillar (kattaliklar, o'zgaruvchilar) ni hisobga olish zarur. To'g'ri xulosa chiqarish uchun bir vaqtning o'zida faqat bitta o'zgaruvchining qiymatini o'zgartirish kerak. Tadqiqotchi tomonidan qiymati o'zgartiriladigan o'zgaruvchi *erkli o'zgaruvchi* deb ataladi.



Kiyim 25 °C haroratda quritilmoqda

Tajriba davomida erkli bog‘liq ravishda kattalik o'zgaradigan erksiz o'zgaruvchi deyiladi. Ushbu tajribada kiyim qurishi uchun ketgan vaqt erksiz o'zgaruvchi hisoblanadi. Bug'lanish tezligiga atrof-muhit haroratining ta'sirini o'rganish uchun o'tkazilgan tajribada harorat erkli o'zgaruvchi hisoblanadi.

Ushbu tajribada ba'zi omillarni o'zgarishsiz saqlashimiz kerak. Bular nazorat o'zgaruvchilari deyiladi. Ushbu tajribada kiyim tarkibidagi suv miqdori, mato turi va kiyim quritilayotgan joy nazorat o'zgaruvchilari hisoblanadi.

Bug'lanish tezligiga shamolning ta'sirini aniqlash uchun tadqiqot rejasini qanday tuzgan bo'lardingiz?

Tadqiqot rejasini tuzishda quyidagilarni hisobga oling.

- Tadqiqotda qaysi o'zgaruvchilar erkli, erksiz va nazorat o'zgaruvchilari hisoblanadi?
- Tadqiqotni amalga oshirish uchun kerakli jihozlarni qanday tanlaysiz va ulardan qay tarzda foydalanasiz?

- Sizningcha, tadqiqot natijalari qanday bo'lishi mumkin? Bashorat qilib ko'ring

Ishonchli natija olish uchun kuzatishlarni takrorlashingiz zarurmi?

Tadqiqotni ehtiyotkorlik bilan bajaring. Barcha o'lchash ishlari to'g'ri va aniq natijalarni sinfdoshlaringizga na kuzatishlaringizni jadvalda qayd qilib boring va natijalarni do'stlaringizga taqdim eting.

Bugungi kun yoshlari har tomonlama rivojlangan, o'ziga, boshqa insonlarga, jamiyatga, tabiyatga va mehnatga o'zining to'g'ri munosabatini bildiradi oladigan mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan ijodkor, muloqatchang bo'lmog'i lozim.

O'z davrida Ushinskiy ham o'qituvchi o'quvchilarga faqatgina bilim berish bilan emas, balki ular bilan o'zaro muloqatda bo'lib ishontira olishi, ularga yoqa olishi lozim, chunki o'qituvchi shaxsi o'quvchiga qattiq tasir o'tkaza oladi degan edi.

²⁰ Internet ma'lumotlari

20-Yanvar, 2026-yil

- «4 k modeli» uchun talim texnologiyasi modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, unda o‘quv mashg‘ulotining rejasi, darsning maqsadi, kutiladigan o‘quv faoliyati natijalari va mustaqil ishlash uchun topshiriqlar keltirilgan.

Fikrimizcha, tanlangan mavzuda yoritib berilgan pedagog texnologiyalar va interfaol metodlarni qullash o‘quvchilarni mavzuni o‘zlashtirishlarida samarali natija beradi

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Eshmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari. –T.: TDPU, 2004.
2. Mavlonov O.M., Komilov G’. Zoologiya. Umumta’lim maktablarining 7-sinflari uchun darslik. – T.: “O‘zbekiston”, 2005.
3. Prator O’., Odilov T., Toshmuhamedov U. Botanika. Umumta’lim maktablarining 5-sinflari uchun darslik. – T.: “O‘qituvchi”, 2006.
4. Tolipov O’.Q. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: “Maktab va hayot” jurnaliga ilova, 11(035)-nashr, 2003.